

FANLARNI O‘QITISHDA STATISTIK MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH

Farxodov Bobur

Bozorov Abdurauf

Egamnazarov Bobur

Jizzax davlat pedagogika
universiteti 4- kurs talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fanlarni o‘qitishda samaradorlikka erishish uchun statistik ma’lumotlardan foydalanish usullari va natijalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Statistika, diagramma, jadval, reyting, identifikator, individual ma’lumotlar, metama’lumotlar, statistik birlik, tasniflash, ta’lim samaradorligi, didaktika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются методы и результаты использования статистических данных для достижения эффективности преподавания естественных наук.

Ключевые слова: Статистика, диаграмма, таблица, рейтинг, идентификатор, индивидуальные данные, метаданные, статистическая единица, классификация, эффективность обучения, дидактика.

ABSTRACT

This article discusses the methods and results of using statistical data to achieve efficiency in science teaching.

Keywords: Statistics, diagram, table, rating, identifier, individual data, metadata, statistical unit, classification, educational efficiency, didactics.

Mamlakatimizda turli sohalarda ma’lumot yig‘ish, tartiblash, tahlillash, sharhlash va ularni izohlashga bo‘lgan talab tobora kuchaymoqda. Turli hodisalar va jarayonlarni miqdoriy hisoblash, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish yo‘li bilan ijtimoiy hayotning umumiy qonuniyatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu esa tashkilot yoki muassasani va hatto davlatni samarali boshqarishda qo‘l keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-sonli “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021-yil 16-iyundagi 9-mb-sonli qarori bilan tasdiqlangan Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3312, 2021-yil 16-iyul) hamda O'zbekiston respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi (Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 7-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2021-yil 26-iyunda ma'qullangan) qonini mamlakatimizda turli xil sohalarda stastistikadan foydalanish masalalarini tartiblashtirmoqda.

Ushbu Qonun va qarorlarning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Bugungi kunda statistik ma'lumotlardan foydalanish nafaqat iqtisodiyotda balki, barcha sohalarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, ta'limda undan foydalanish salmoqli darajada ortgan va bu davom etmoqda.

Statistik ma'lumotlardan ta'limning har bir qismida foydalanilmoqda. Har bir qismda turlicha qo'llanilmoqda:

1. O'zlashtirishni aniqlash uchun;
2. Bilimlarni baholash uchun;
3. Ta'lim natijalariga qarab keying yo'lni, strategiyani belgilab olish uchun;
4. Didaktik jarayonda o'quvchilar mavzuni aniqroq tasavvur qilishi uchun;
5. Fanlarni o'qitishda tahliliy ma'lumotlardan foydalanish uchun;

Biz fanlarni o'qitishda statistik ma'lumotlardan foydalanishga e'tibor qaratmoqchimiz. Hozirda aniq fanlardan tashqari istalgan fanda statistik ma'lumotlar: diagrammalar, jadvallar, reytinglar, identifikatorlar, individual ma'lumotlar, metama'lumotlar kabilardan foydalangan holda o'quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Statistik birliklardan esa aniq bir ob'ektning tasnifini aniqtirish mumkin. Bu mavzuning har bir elementini anglashda, ularni tushunib yetishda samarali yordam beradi.

Fanlarni o'qitishda biz fan dasturini statistik ma'lumotlarda tayanib bir muncha samarali tashkil etishimiz, didaktik jarayonda individual ma'lumotlar asosida ta'lim oluvchiga nisbatan to'g'ri yondashishimiz mumkin bo'ladi. Diagrammalar, jadvallar, reytinglar va identifikatorlar esa mavzuni tushintirishning samarali vositalari, shakllari deb hisoblashimiz mumkin.

Fikrimizcha, Statistika bu to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash, solishtirish natijasidir. O'z navbatida u boshqa stastistikani vujudga keltirishi uchun yana bir bor taqqoslanishi mumkin. Taqqoslash esa tahlil qilishni, tahlil qilish esa yaxshiroq tushunishni

qo‘llaydi. Oqibatda o‘rganilayotgan ob‘ektning chuqur o‘zlashtirilishi, uni “anglab yetish”ga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Statistika>
2. <https://lex.uz/docs/-5569619>
3. Jumabaeva S.K. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida statistik ma’lumotlardan foydalanish metodologiyasi” maqolasi, ISSN 2181-7138 № 3/1- 2022-yil, 5 sahifa.
4. Toshkent moliya instituti “Oliy matematika, statistika va ekonometrika” kafedrasini, “Statistika” fanidan o‘quv – uslubiy majmua, 2019.
5. Dodge, Y. (2006) *The Oxford Dictionary of Statistical Terms*, OUP. [ISBN 0-19-920613-9](https://doi.org/10.1093/acref/9780199206139)
6. [↑ The Free Online Dictionary](https://www.thefreedictionary.com/)
7. [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi \(2000-2005\)](#)